

## SOTSIOLINGVISTIKA VA MADANIYAT

Andijon davlat chet tillari instituti  
Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti  
Tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi  
1-bosqich talabasi

**Karimberdiyeva Mubina**

Ilmiy maslahatchi: **Yuldasheva Sadoqatoy**

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sotsiolingvistika va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi hamda jamiyatdagi madaniy qadriyatlarlarning nutq odobiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o'zbek nutq madaniyatidagi ayrim fenomenlar, ijtimoiy tabaqalanishning tilga ta'siri va globalizatsiya jarayonida milliy tillarning transformatsiyasi masalalari yoritilgan. Maqolaning maqsadi tilni shunchaki so'zlashish vositasi sifatida emas, balki millatning madaniy ko'zgusi sifatida ko'rsatib berishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** sotsiolingvistika, madaniyat, til va jamiyat, nutq odobi, ijtimoiy tabaqalanish, globalizatsiya, milliy o'zlik, lisoniy manzara, transformatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the inherent connection between sociolinguistics and culture, the nature of language as a social phenomenon, and the influence of societal cultural values on speech etiquette. The study highlights certain phenomena of Uzbek speech culture, the impact of social stratification on language, and the issues of national language transformation in the process of globalization. The purpose of the article is to present language not merely as a means of communication, but as a cultural mirror of a nation.

**Keywords:** sociolinguistics, culture, language and society, speech etiquette, social stratification, globalization, national identity, linguistic worldview, transformation.

**Аннотация:** В данной статье анализируется неразрывная связь между социолингвистикой и культурой, природа языка как социального феномена и влияние культурных ценностей общества на речевой этикет. В ходе исследования освещаются отдельные феномены узбекской речевой культуры, влияние социальной стратификации на язык и вопросы трансформации национальных языков в условиях глобализации. Цель статьи — показать язык не просто как средство общения, а как культурное зеркало нации.

**Ключевые слова:** социолингвистика, культура, язык и общество, речевой этикет, социальная стратификация, глобализация, национальная идентичность, языковая картина мира, трансформация.

XIX asrda tilshunoslar tilning jamiyatga bog‘liqligini chuqurroq o‘rganishni boshladilar. Bu davrda tilning ijtimoiy omillar ta’sirida o‘zgarishi haqidagi g‘oyalar paydo bo‘ldi. Til dialektlari, ijtimoiy guruhlarning nutqi va madaniyat bilan bog‘liq jihatlar tadqiq qilina boshladi. XX asrning o‘rtalarida sotsiolingvistika mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi. Bu davrda til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatni empirik tadqiqotlar orqali o‘rganish kengaydi. Mashhur tilshunos olimlar, jumladan William Labov, Dell Hymes va Joshua Fishman sotsiolingvistikaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Ular tilning ijtimoiy tabaqalar, yosh, jins, millat va madaniyat bilan bog‘liqligini o‘rgangan. Sotsiolingvistika (lot societas — jamiyat va lingvistika) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolar majmuini o‘rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi. Ushbu muammolarning ayrimlari („til va jamiyat“) umumiy tilshunoslik doirasida ham o‘rganiladi. Sotsiolingvistikaning fanlar aro maqomi u foydalanadigan tushunchalar majmuida namoyon bo‘ladi. O‘tgan asrning 70—80 yillaridagi ayrim sotsiolingvistik izlanishlar bir tomonlama — o‘sha vaqtdagi til siyosati nuqtai nazari va talablari asosida olib borilgan.[1] Sotsiolingvistikadagi me’yoriylik mezoni deyilganda tilning muayyan me’yorlar asosida muvofiqlashtiriluvchi tushuniladi. Til grammatikasiga oid qonun-qoidalarning yaratilishi me’yorlashtirishning muhim

omillaridan hisoblanadi. Me'yorlashtirilgan til muayyan jamiyatning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, muayyan qonun-qoidalar asosida muvofiqlashtirilgan milliy-adabiy tildir. Hududiylik tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligini ifoda etadi. Hududiylik millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog'liq. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning boshqa-boshqaligi tillar o'rtasidagi farqlar uchun asos bo'ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo'lishi hududning farq qilishidan qat'i nazar, aloqamunosabat vositasining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek va tojik tillarida har bir tilning o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo'lgan o'zbek va qirg'iz tillari o'rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlar bor. Adabiy til va shevalar o'rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq farqlar kuzatiladi. Ijtimoiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tillarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- Me'yorlashtirilgan tillar
- Qadimiy tillar
- Mahalliy tillar
- Kreol tillar
- Pijin tillar
- Sun'iy tillar

1. Me'yorlashtirilgan til — grammatikasi, imlosi va talaffuzi aniq qoidalar bilan belgilangan, rasmiy sohalarda ishlatiladigan tildir. Bunday til odatda ta'limda, davlat hujjatlarida, matbuotda va adabiyotda qo'llanadi. Masalan, O'zbek tili va Ingliz tili me'yorlashtirilgan tillar hisoblanadi. Bu tillarning grammatik qoidalari va adabiy shakli mavjud bo'ladi.

2. Qadimiy tillar — hozirgi kunda kundalik hayotda ishlatilmaydigan, lekin tarixiy manbalarda va ilmiy tadqiqotlarda uchraydigan tillardir. Masalan, Lotin tili, Qadimgi yunon tili va Sanskrit qadimiy tillar hisoblanadi. Ular ko'plab zamonaviy tillarning rivojlanishiga asos bo'lgan.

3. Mahalliy tillar — ma'lum hududda yashovchi xalq yoki millat tomonidan ishlatiladigan tillardir. Ular o'sha hududning madaniyati va tarixini aks ettiradi. Masalan, Qozoq tili, Qirg'iz tili va Tojik tili Markaziy Osiyoda mahalliy tillarga kiradi.

4. Kreol tillar — turli tillarning aralashuvi natijasida paydo bo'lgan va keyinchalik mustaqil tilga aylangan tillardir. Ular odatda mustamlaka davrida shakllangan. Masalan, Haitian Creole va Jamaican Creole kreol tillarga misol bo'ladi.

5. Pijin til — turli millat vakillari o'zaro muloqot qilish uchun yaratgan sodda va aralash til shaklidir. U odatda grammatik jihatdan sodda bo'ladi va hech kimning ona tili hisoblanmaydi.

Masalan, Tok Pisin dastlab pijin til bo'lib, keyinchalik rivojlangan.

6. Sun'iy tillar — insonlar tomonidan maxsus yaratilgan tillardir. Ular xalqaro muloqotni osonlashtirish yoki ilmiy, badiiy maqsadlarda yaratiladi. Eng mashhur sun'iy til — Esperanto. Bu til 1887-yilda L. L. Zamenhof tomonidan yaratilgan.

Bugungi kunda sotsiolingvistika til siyosati, ikki tillilik, ko'p tillilik, til va madaniyat, internet tilining rivoji kabi masalalarni o'rganadi. Globalizatsiya jarayonida til va jamiyat o'rtasidagi munosabat yanada murakkablashib bormoqda. Sotsiolingvistika tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida o'rganadi. Bu fan tilning ijtimoiy vazifasi, til o'zgarishi va turli ijtimoiy guruhlar nutqini tahlil qilishga yordam beradi.

Til madaniyatni belgilaydimi yoki madaniyat tilnimi degan savol jamiyat orasida keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ushbu bobda bu savol atroflicha tahlil qilinadi. Bu masalada Sapira-Uorf Gipotezasi (Til va Tafakkur) nazariyalariga yuzlanamiz. Lingvistik determinizm: Inson dunyoni o'zi gapiradigan til prizmasi orqali ko'radi va tasavvur qiladi. Masalan, ba'zi avstraliyalik aboriginlar tillarida "o'ng" yoki "chap" tushunchasi yo'q, ular faqat "shimol", "janub" kabi koordinatalardan foydalanishadi. Bu ularning fazoviy tasavvurini o'zgartiradi.

Madaniy o'ziga xoslik: O'zbek tilidagi "andisha", "istihola" so'zlari boshqa tillarga aynan tarjima qilinmaydi, chunki bu tushunchalar milliy madaniyatimizning ajralmas qismidir.

Yana bir olim Leksoff nazariyasiga ko‘ra: Erkaklar va ayollar nutqidagi farqlar. Ayollar nutqi odatda ko‘proq emotsional va polite (muloyim) shakllarga boy bo‘lishi tadqiq etiladi.

Yosh omili: Slang va jargonlar yoshlar madaniyatining ajralmas qismi sifatida. Bu "biz va ular" degan ijtimoiy chegarani hosil qiladi.

Kasbiy nutq: Shifokorlar, huquqshunoslar va dasturchilar tili — bu yopiq madaniy sub-guruhlarining belgisi.

Har bir madaniyatning o‘z "muloqot kodi" mavjud. Xushmuomalalik strategiyalari: G‘arb madaniyatida (Individualizm) "Men" tushunchasi va shaxsiy hudud ustuvor bo‘lsa, Sharq madaniyatida (Kollektivizm) "Biz", jamoa va iyerarxiya (yosh ulug‘larni e‘zozlash) birinchi o‘rinda turadi. Tabu va Evfemizmlar: Jamiyatda aytish nojoiz bo‘lgan so‘zlar (o‘lim, kasallik, diniy tushunchalar) o‘rniga yumshoqroq so‘zlar ishlatilishi madaniyatning "himoya mexanizmi" hisoblanadi. Bugungi kunda ingliz tilining "Lingua Franca" (global muloqot tili) sifatida madaniyatlarga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Kaltaklash: Boshqa madaniyatdan so‘z bilan birga tushunchaning ham kirib kelishi. Internet-til: Emoji va qisqartmalar madaniyati — bu yangi raqamli madaniyatning sotsiolingvistik ko‘rinishidir.

O‘zbek madaniyatida til va jamiyat o‘rtasidagi aloqa boshqa ko‘plab xalqlarga qaraganda chuqurroq iyerarxik va axloqiy asoslarga ega. Bu, ayniqsa, olmoshlar qo‘llanilishida yaqqol ko‘rinadi.

Sotsiolingvistikada "T-V" (lotincha Tu va Vos) sistemasi mavjud. O‘zbek tilida bu tizim shunchaki grammatik son emas, balki ijtimoiy statusni belgilovchi vositadir. Vertikal munosabatga ko‘ra: Yosh jihatidan kichiklar kattalarga, lavozimi pastlar yuqorilarga nisbatan mutloq "Siz" formasini ishlatadi. Bu madaniyatda yosh — bilim va tajriba belgisi sifatida muqaddaslashtirilgan. Gorizontaal munosabatda esa, tengdoshlar orasida "sen"lash odatiy hol bo‘lsa-da, begona tengdoshga nisbatan "Siz" deyish — madaniyatlilik va shaxsiy hududni hurmat qilish belgisidir. An’anaviy o‘zbek oilalarida ayol kishining turmush o‘rtog‘ini "Siz"lashi nafaqat hurmat, balki oilaviy iyerarxiyaning lisoniy tasdig‘idir. Bu hodisa G‘arb sotsiolingvistikasida "madaniy konservatizm" deb baholanishi mumkin, ammo o‘zbek mentalitetida bu oila mustahkamligi ramzi hisoblanadi.

Farzandning ota-onaga "Siz" deb murojaat qilishi — jamiyatdagi tartib-intizomning ilk bosqichidir.

Shuningdek, o'zbek madaniyatida "Lutf" tushunchasi sotsiologik fenomen sifatida o'rganiladi.

Mehmondo'stlik leksikasi: "Qadamlariga hasanot", "Xush kelibsiz", "Tushub turing" kabi iboralar shunchaki so'z emas, balki o'zbek xalqining mehmondo'stlik madaniyatini ifodalovchi ijtimoiy kodlardir.

Bilvosita murojaat: O'zbeklarda biror iltimosni rad etishda "yo'q" so'zidan qochishga harakat qilinadi. "Xudo xohlasa", "Nasib qilsa ko'ramiz" kabi iboralar ko'pincha rad javobining madaniy-yumshoq shakli sifatida ishlatiladi.

Sotsiologik nuqtai nazardan, o'zbek shevalari nafaqat hududiy farqlarni, balki o'sha hudud xalqining fe'l-atvori va ijtimoiy qadriyatlarini ham aks ettiradi. O'zbekistonning turli viloyatlaridagi murojaat shakllari o'ziga xos madaniy kodlarga ega. Farg'ona vodiysi: "Sizlash" va yuqori etiket. Vodiydagi nutq madaniyati o'ta yuqori darajadagi xushmuomalalik (politeness) bilan ajralib turadi. Bu yerda hatto yaqin qarindoshlar, aka-ukalar o'rtasida ham "Siz"lash tizimi qat'iy saqlanadi. Masalan, "akajon", "pokiza" kabi epitetlarning nutqda ko'p qo'llanilishi ijtimoiy iyerarxiyaga bo'lgan yuksak hurmatni ko'rsatadi. Xorazm vohasi: Samimiylik va ochiqlik. Xorazm shevasida murojaat shakllari ko'proq qadimiy turkiy ildizlarga va ichki samimiylikka tayanadi. Bu yerda muloqot "vertikal" (katta-kichik) emas, balki "gorizontal" (tenglik) xarakteriga ega. Xorazmcha "adash" (ismlar bir xil bo'lsa) yoki murojaatdagi o'ziga xos ritm insonlar o'rtasidagi masofani qisqartirishga va jamoaviy yaqinlikni oshirishga xizmat qiladi.

Voha shevalari (Qashqadaryo, Surxondaryo): Mardlik va soddalik. Bu hududlarda nutq ko'proq mardona va aniq ifodalardan tashkil topgan. Murojaatda ortiqcha bezaklardan qochish va fikrni to'g'ridan-to'g'ri bayon qilish (masalan, "og'a", "jo'ra") o'sha hudud aholisining etno-psixologiyasini ifodalaydi.

Globalizatsiya jarayonida o‘zbek tili lug‘at tarkibida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar jamiyatning qaysi qatlamiga mansubligini ko‘rsatuvchi "ijtimoiy marker" vazifasini o‘tamoqda.

Ziyolilar va shahar aholisi nutqi: Toshkent kabi yirik shaharlarda "Spasibo", "Poka", "Privet" kabi ruscha elementlarning yoki "Thank you", "Sorry" kabi inglizcha so‘zlarning ishlatilishi so‘zlovchining zamonaviy ta’lim olgani yoki yuqori ijtimoiy statusga intilishini ko‘rsatadi. Bu sotsiolingvistikada "prestajli nutq" deb yuritiladi.

Yoshlar nutqi va "Digital" madaniyat: Yoshlar orasida "OK", "K", "Yep" kabi qisqa tasdiq so‘zlarining ishlatilishi vaqtni tejash va raqamli madaniyatga (Internet slang) moslashish natijasidir.

Leksik transformatsiya: O‘zbek tilidagi an’anaviy "Rahmat" so‘zi o‘rniga chet tili variantlarini qo‘llash shunchaki so‘z almashinuvi emas, balki dunyoqarashning universallashtirib borayotganidan dalolatdir. Biroq, bu holat milliy tilning o‘ziga xosligini biroz xiralashtirishi mumkin, bu esa tilshunoslar orasida "tilning sof bo‘lishi" (purizm) haqidagi bahslarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistika va madaniyat bir-birini to‘ldiruvchi uzviy tushunchalardir. Til shunchaki aloqa vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, milliy qadriyatlari va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi madaniy ko‘zgidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudov, N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llari. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2012. – B. 42-58.
2. Safarov, Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: "Sangzor", 2006. – B. 85-102.
3. Labov, W. Sociolinguistic Patterns. – University of Pennsylvania Press, 1972. – P. 110-125.
4. Dadabayev, H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2019. – B. 67-74.
5. Hymes, D. Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach. – University of Pennsylvania Press, 1974. – P. 45-63.

6. Doniyorov, X. O‘zbek xalqi shevalari va uning o‘rganilish tarixi. – Toshkent: "Fan", 1985. – B. 112-128.
7. Saparov, B. Til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi. – Samarqand: "Zarafshon", 2015. – B. 24-38.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>